



FOLKLOR JANRLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Baxtiyorova Sabrina Bobirovna
BuxDPI “Tillar fakulteti” 2-bosqich talabasi
Jamolova Mohigul Baxtiyorovna
BuxDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun pedagogikasidagi muhim ijtimoiy islohotlar hamda boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarini tashkil qilishda ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: ta’lim, pedagogika, interfaol metod, innovatsiya, o‘qituvchi, pedagogik texnologiya, ertak, maqol, sanama, masal, folklor.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЖАНРОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье описаны изменения в современной образовательной реформе, организации инновационных образовательных технологий на уроках читательская грамотность в начальных классах, а также роль и значение образовательных технологий.

Ключевые слова: образование, педагогика, интерактивный метод, инновация, педагог, педагогическая технология, сказка, пословица, фольклор

USE OF INNOVATIVE PEDATECHNOLOGIES IN TEACHING FOLKLORE GENRES IN PRIMARY CLASSES

Abstract: This article describes the changes in today's educational reform, the organization of innovative educational technologies in primary-grade native reading literacy, and the role and importance of educational technologies.

Key words: education, pedagogy, interactive method, innovation, teacher, pedagogical technology, fairy tale, proverb, folklore

Kirish. Dunyo xalqlari adabiyotida folklor janrlarining stilizatsiyasi keng tarqalgan adabiy hodisalardan biri sifatida alohida e’tiborni tortadi. Folklor ya’ni xalq og‘zaki ijodining ertak, topishmoq kabi an’anaviy janrlari asosida bolalar adabiyotida she’riy, nasriy, dramatik ko‘rinishdagi adabiy ertaklar, maqollar va topishmoqlar ko‘plab yaratilganki, ularning o‘zaro

genetik aloqadorligini, janriy xususiyatlarini, badiiy-kompozitsion belgilarini aniqlash folklor va yozma adabiyot munosabatining bardavomligini asoslashda muhim omil hisoblanadi. Holbuki, folklor san’ati, ta’bir joiz bo‘lsa, insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir deb ayta olamiz. [1;35-b]

Butun dunyo xalqlari adabiyotshunosligida hozirgi kunda bolalar adabiyotining an’anaviy janrlariga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashib, poetik xususiyatlarini, yaratilish asoslarini, ijtimoiy-psixologik omillarini, ijodkor badiiy mahoratini ochishga alohida e’tibor qaratilmoqda.[4;5-b] Aynan, folklorning ertak, maqol, latifa va topishmoq singari qadimiy, an’anaviy janrlarining milliy bolalar adabiyotini yuksaltirishdagi o‘rnini, ularni stilizatsiyalashda taqlid, ijodiy ta’sirlanish, immanent va kontekstual yondashuv masalalarini yoritish bolalar adabiyoti taraqqiyot tamoyillarini, unda shakliyl-uslubiy yangilanish turlarini aniqlash ushbu yo‘nalishini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi haqida bir qancha olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib borganlar. [2;87-b] Jahon madaniy merosining bu o‘lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi.

METODLAR. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badiiy asarlar vositasida o‘qish, fikrlash, his etish, ijod qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lib boradi. Badiiy asar bilan tanishish jarayonida yuzaga keladigan mazkur to‘rt holat (o‘qish, fikrlash, his etish, ijod qilish) muayyan didaktik vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi. Ya’ni: yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish, atrof-muhit bilan yaqindan tanishib borish (o‘qish); o‘zlashtirilgan ma’lumotlarga tayangan holda predmet, voqea va hodisalarni bir-biri bilan bog‘lash, natijaga ko‘ra xulosaga kelish (fikrlash); voqea, hodisalarning ishtirokchilari bo‘lgan qahramonlarning ruhiy holati tushunish, unga hamdard bo‘lish, uni qo‘llab-quvvatlash yoki tanqid qilish (his etish); asar voqea va hodisalarining boshqacha yechimga ega bo‘lishini istash, bu boradagi taklifni ilgari surish (ijod qilish). [3;62-b]

Hozirgi davrda o‘zib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi muhimdir. Ushbu masalaning hal etilishi ko‘p jihatdan o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashga bog‘liq. Interfaol so‘zi inglizcha “Interakt” so‘ziga mos kelib, “Inter – o‘zaro”, “akt – ish ko‘rmoq, ishlamoq” degan ma’nolarni anglatadi. Interfaol o‘qitish – muloqotli o‘qitish bo‘lib, jarayonning borishida o‘qituvchi va o‘quvchi orasida o‘zaro ta’sir amalga oshiriladi. Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o‘quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Darslardagi interfaol faoliyat o‘zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda echishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Interfaol metodlardan foydalaniladigan o‘quv jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko‘rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga

o‘rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o‘yinlar, ijodiy ishlar qo‘llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi. Interfaol o‘qitish tashkilotchilari uchun, sof o‘quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

- guruhdagi o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlar jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushunib etishi;

- boshqalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;

- o‘quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish. Interfaol usullar bo‘yicha o‘qitish tashkil etish jarayonida o‘qituvchining bergan topshiriqlari mazmuni o‘quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun kuchli vositadir.

Ushbu topshiriqlar turli xil murakkablik darajalarida bo‘lib, o‘quvchilarni fikr yuritish, o‘ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi bo‘lishi lozim. Quyida topshiriq savollarini to‘g‘ri ifoda qilish uchun tavsiyalar keltiramiz:

1. Topshiriq savollarini aniq va tushunarli darajada qo‘yish lozim.

2. Topshiriq mavzu bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak.

3. Muayyan predmetlardan umumiyga borishga harakat qiling. Bu holat o‘quvchilarni o‘ylashi va savolga javob berishda engillik tug‘diradi.

4. Faqatgina “ha” yoki “yo‘q”, “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” degan javoblar beriladigan savollarni berishdan saqlanang.

5. O‘quvchilarga o‘z intellektual qobiliyatlariga tayangan holda javob beradigan savollarni bering.

6. O‘quvchining o‘z nuqtai nazarini bildiradigan topshiriqlardan berishga harakat qiling.

7. Qo‘yilgan topshiriqqa javob berilganda o‘quvchilardan “Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz?” deb so‘rab turing. Quyida bir qator interfaol metodikalarning tavsifi va mohiyatini keltiramiz:

“Aqliy xujum” metodi. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o‘z tasavvurlari va g‘oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma‘lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. «Aqliy xujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma‘lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi. Mashg‘ulotlar jarayonida «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

1. Mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Darsda o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdori rag‘batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi.

Bundan tashqari fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g‘oyalarning tuzilishiga olib keladi.

3. O‘quvchi o‘zining shaxsiy fikri yoki g‘oyalariga asoslanishi hamda ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g‘oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g‘oya)larning shakllanishiga zamin tayyorlaydi.

4. Dars davomida ta‘lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘ymaydi. Agarda ularning fikr (g‘oya)lari baholanib, boriladigan bo‘lsa, ta‘lim oluvchilar o‘z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo‘llashdan asosiy maqsad ta‘lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligini e‘tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir. [3]

Boshlang‘ich sinf darsliklarini tahlil qilish natijasida, o‘quvchilarda ko‘proq nutqiy kompetensiyalikni rivojlantirishga qaratilganini kuzatishimiz mumkin. Boshlang‘ich sinflarda asosan Klaster metodi, Topgan topaloq musobaqasi metodi, B\B\B metodi, T metodi, Xat metodi kabi metodlar bilan o‘quvchilar mavzuni yanada mukammal tushunishiga imkon beradi.

Yuqorida nomi ko‘rsatilgan metodlar dars jarayonida o‘quvchini mavzuni aniq o‘rganishiga yordam beradi. Masalan: 3-sinf 109 betdagi “Sotuvchi, xaridor va narx” 116-betda “Birovning mulki” nomli mavzularni klasster metodi va T metodi orqali o‘tganimizda an‘anaviy dars metodiga nisbatan bu metod yaxshiroq samara berganiga guvoh bo‘ldik.




7. Sotuvchi va xaridor manfaatlariga mos holatlarni aniqlab, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Narxning qimmatligi, mahsulotning ko‘pligi, mahsulotning sifati, ishlab chiqaruvchi korxonaning mashhurligi, reklamaning mavjudligi, narxning arzonligi, mahsulotning kamligi.

Sotuvchining manfaati	Xaridorning manfaati
-----------------------	----------------------



Hammani sevimli ertak qahramonlari Zumrad va Qimmatni xislatlarini “Klasster usuli” dan foydalangan holda ijobiy va salbiy xususiyatlarini sanadik.



Milliy Dastur asosida tuzilgan Boshlang'ich sinf darsliklarini tahlil qilganimizda Xalq og‘zaki ijodi janrlaridan topishmoq, maqol, ertak, rivoyat, tez aytishlarga murojaat qilinganini ko‘rishimiz mumkin. Yangilik sifatida Buxoro farzandi folklorshunos olim Oxunjon Safarov tomonidan bolalar folklorida 25 dan ortiq janrlar ochib berilgan. Shu janrlar ichidan Sanamalar darsliklarga kiritilgani bo‘ldi. [5;27-b]

Topishmoq: Suyanmasang, turolmas, sen minmasang yurolmas (Velosiped),
 Ichi bo‘yoq,sirti tayoq.(qalam),
 Osti tosh, usti tosh, o‘rtasida chandir bosh, (toshbaqa),
 Tunda ko‘rib cho‘g‘ deysan,Tongda ko‘rib, yo‘q deysan (yulduz),
 Tanga-tanga to‘ni bor, mittigina ko‘zi bor,
 Suzsa suvla jimirlar,qamishlar ham qimirlar (baliq),
 O‘lgudayin ayyorman,o‘rmon ichra sayyorman,
 Dumim suprgisifat, na do‘stim bor na ulfat,

Meni qilmay ko‘p kulgi, nomim to‘g‘ri ayt (tulki)
Tez aytish: Bir dona bedana, Bedana bir dona
Maqol: Oltin olma duo ol,
Hunar, hunardan unar,
Harakat,harakatda barakat,
Har kim ekkanini o‘rar,
Mehnat Mehnatning tagi rohat,
Ona yurti omon bo‘lsa, Rang-u ro‘ying somon bo‘lmas,
Bugunki ishni ertaga qo‘yma,
Qor yog‘di don yog‘di,
Bola odobi bilan aziz,
Qush qanoti bilan, odam do‘sti bilan,
Do‘stsiz boshim, tuzsiz oshim.
Bulbul chamanni sevar, Odam –Vatanni.

1-sinf O‘qish savodxonligi darsligida I-II- qism

Ertak: Kemiroy ertagi, Zumrad va Qimmat ertagi,
Topishmoq: Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar (shamol),
Oppoqqina dasturxon, yer yuzini qoplagan (Qor) ,
Oyog‘i yo‘q-qochadi, Qanoti yo‘q-uchadi, (shamol),
O‘tda yonmaydi, Suvda botmaydi (muz)
Bu jonivor beozor,
Usti nuqul tikanak,
Koptok deysiz bemalol, bo‘lib olsa g‘ujanak (tipratikan)
To‘r ustida yashaydi,
Pashshani o‘rab tashlaydi (O‘rgimchak)
Bir aybi bor, turib semiradi (xamir)
“Teg” desam tegmaydi, “Tegma desam tegadi” (Lab)
Yo‘l ko‘rsatar hammaga,
Hamisha uch xil chiroq,
E‘tiborsiz bo‘lsa kim,
Deydi: “Ko‘zlarimga boq”(svetofor)
Sandiq to‘la oq sadaf,
Turishadi tortib saf,
O‘ttiz ikkita o‘rtoq,
Yashaydi ahil –inoq. (Tish)
Katta-kichik besh o‘rtoq, uyushsa, bo‘lar to‘qmoq (barmoq)
Dum-dumaloq, yum-yumaloq

Ichi to‘la havo-yey, tepsam otar shataloq (koptok)
Yo‘qdir qo‘l-u oyog‘i, Na ko‘zi, na qulog‘i.
Ammo unga bir qadam, Yer shari, Oy-u Zuhro.
Bir tuyam bor guldiroq, hamma yeri yaltiroq.
Cho‘zilib yotar Narvon, undan o‘tar uy-karvon.
Baland Temir uy yurar, burni tog‘larni surar
Ertak, sher-u matnlar, yashar bir mamlakatda
Dunyoni o‘rganishga uning xizmati katta“(Kitob)

Maqollar: Yoz mevasi-qish xazinasi,
G‘oz kelgani-yoz kelgani,
Yomg‘ir-ekinining joni,
Sog‘ tanda sog‘lom aql
Toza havo- ming dardga davo,
Til bilgan el biladi
Til-dil jarchisi
Do‘st- kulfatda sinalar

Tez aytish: Jamol, Jalol, Jo‘ralar, boqdi jajji jo‘jalar,
Sovuqda tovuqqa tovoqda bodroq sochdim,
Qo‘zichoq-ko‘zlari munchoq, ovunchoqning vaqti chog‘
Tojining tojdor xo‘rozi gultojixo‘roz tagida
Pirpirak pirillaydi, chirildoq chirillaydi
Tohir tog‘a tog‘da tulki tutdi
Qalpoqni top, qopqoqni yop
Oq choynakka oq qopqoq, ko‘k choynakka ko‘k qopqoq
Qozichog‘im, qo‘ng‘ir, oq, Qo‘ng‘iroqli qo‘zichoq.
Qurilishda terak kerak, demak, ekmoq kerak terak.
Shirin sharbatning

Ertaklar: Zumrad va Qimmat, Egrivoy va To‘g‘rivoy, Qizil shapkacha, Uch og‘ayni botirlar, Sholg‘om ertaklari asosida rasmlar berilgan, Serkaboboning hiylasi, Bo‘g‘irsoq, G‘alati ziyofat,

Sanamalar: bir, ikki, o‘n olti, o‘n olti deb kim aytdi, o‘n olti deb men aytdim.

Xulosa va tavsiyalar. Xalq og‘zaki ijodi bolalarning fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalaydi, ularning ertaklarni so‘zlab berishlari va ertak tinglashlari bilan nutq madaniyatlari rivojlanadi. Bunda ertakdagi muhim badiiy detallarni tanlay bilishi va ularni ko‘zda tutilgan maqsadga qaratishi ham katta ahamiyatga ega – xarakterli detallar o‘quvchilarga estetik zavq bag‘ishlaydi, ta’sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60- son Farmoni \\
<http://www.lex.uz>
2. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964. – 68 b.;
3. Asqarova O‘. Mo‘minova D. O‘qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Namangan. 2019
4. Madayev O. Sobitova T, Xalq og'zaki poetik ijodi.-Toshkent.: “Sharq”, 2010 -yil 17-29 betlar
5. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zali ijodi.-Toshkent.: “Musiqqa” 2010- yil.7-9 bet
6. Baxtiyorovna, Jamolova Mohigul. "ERTAKLAR ORQALI BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari." Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari 4.1 (2024): 31-40.
7. Umidilloeyevna, Saidova Muxayyo, and Jamolova Mohigul Baxtiyorovna. "Mythological Characters in Uzbek Folklore." Miasto Przyszłości 34 (2023): 166-168.
8. Джамолова, Мохигул. "METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH FAIRY TALES." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.3 (2024).
9. Baxtiyorova, Sabrina, and Mohigul Jamolova. "USING FAIRY TALES TO ENHANCE COMPREHENSION SKILLS." Modern Science and Research 3.12 (2024): 873-876.
10. Bakhtiorovna, Jamolova Mokhigul. "Techniques for Fostering English Language Critical Thinking in Elementary School Pupils by Using Fairy Tales." Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521) 2.4 (2024): 263-268.